



INKLYUZIV TA'LIM MAKONINI BARQARORLASHTIRISH, HAMDA UNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARINI MUVOFIQLASHTIRISH MUAMMO VA YECHIMLARI

Maxtuma Fazliddinovna Qurbonova

*"Pedagogika va psixologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi
Angren Universiteti, O'zbekiston.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'limni tashkil etishda ta'lim makonini barqarorlashtirish, pedagogik shart-sharoitlar, uning istiqbolli imkoniyatlari, inklyuziv ta'lim maktablarda faoliyat olib boradigan o'qituvchilar ega bo'lishi kerak bo'lgan kasbiy kompetentlik, "Maxsus pedagogika" va "Maxsus psixologiya" fanlari negizida "Umimiy inklyuziv ta'lim" fan dasturini ishlab chiqish va zamonaviy darslikni yaratish, pedagog kadrlar tayyorlaydigan OTMlarning barcha yo'nalishlarida bu fanni o'qitish xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, inklyuziv, imkoniyati cheklangan o'quvchi, ta'lim sifati va samaradorligi, psixologik jarayon, psixologik xususiyat va jarayon, ta'lim, istiqbol, pedagogik jarayon, "Maxsus pedagogika" va "Maxsus psixologiya", "Umimiy inklyuziv ta'lim" darsligi, OTM.

Abstract: In this article, the stabilization of the educational space in the organization of inclusive education, pedagogical conditions, its promising possibilities, the professional competence that teachers working in inclusive education schools should have, "General inclusive education" based on the disciplines of "Special pedagogy" and "Special psychology" development of a science program and creation of a modern textbook, teaching of this science in all areas of HEIs training pedagogic personnel was discussed.

Key words: pedagogy, inclusive, disabled student, quality and effectiveness of education, psychological process, psychological characteristics and process, education, perspective, pedagogical process, "Special pedagogy" and "Special psychology", "General inclusive education" textbook, HE.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyati bilan faol integratsiyalashuv, inson-huquq va erkinliklarini to'liq ro'yobga chiqarish, bu borada mas'ul davlat va nodavlat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar buning yaqqol dalili bo'lib, aholini barcha qatlam va toifalari uchun ijtimoiy faollikni amalga oshirish, uning huquqiy, ijtimoiy pedagogik va psixologik shart-sharoitlarini yaratish masalalari diqqatga sazovardir.

Jamiyatimizda inklyuziv ta'limni rivjlantirish, alohida ta'limga muhtoj bolalar normal rivojlanayotgan tengdoshlari bilan birgalikda o'qitish, uning pedagogik-



psixologik mexanizmlarini bosqichma-bosqich hayotga tadbiiq etish davlat siyosati darajasidagi masalaga aylandi.

Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)lar uchun ularning alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda foydalanish mumkin bo'lgan ta'limni ta'minlashni nazarda tutadi. A.S.Batalov ta'biri bilan aytganda, inklyuzivlik alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)lar uchun yagona ta'lim maydoni g'oyalariga asoslanib, turli xil ta'lim yo'nalishlariga ega[1].

Alohida ta'limga muhtoj bola qaysi ta'lim dasturida va qaysi ta'lim muassasasida o'qishi to'g'risida qaror ota-onalar (qonuniy vakillar) tomonidan ta'lim tizimiga o'quvchilarni yo'naltirishga muvofiqlashtirilgan konsulim (psixologik, tibbiyot xodimi, pedagogik, defektolog va boshqa) xulosasi tavsiyalari asosida qabul qilinadi

Inklyuziv davlat va jamiyat boshqaruv hayotida bir qancha qulaylik va omilkorlikni keltirib chiqaradi. Biroq, inklyuziv o'qitishga moslashmagan, yoki endi joriy etilgan ta'lim muassasalarida ba'zi pedagog va ota-onalarning imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni ta'lim olishiga bo'lgan munosabati, hamda individual xususiyatlarni taqozo etadigan turli xil ta'lim dastur va resurslarini yaratish bilan bog'liq muammoli vaziyatlarni yuzaga kelish ehtimolligini ham nazarda tutishimiz lozim.

Shu nuqtai nazardan, imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni inklyuziv ta'limga jalb etish jarayonida ular uchun maxsus davlat ta'lim standarti (nogironlik alomati va xususiyatlaridan kelib chiqib) yaratilishi taqozo etiladi. Bunda umumiy ta'lim doirasida moslashtirilgan ta'lim dasturlarini o'zlashtirish talablarini taqdim etadi. Ushbu standart har bir moslashtirilgan dasturni, ya'ni ma'lum bir toifadagi bolalar dastur bo'yicha o'qish davomida qanday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerakligini xususidagi tavsifni o'z ichiga olashi maqsadga muvofiqdir.

Chunki, maxsus ta'limga muhtoj bolalar turli xil (aqliy yoki jismoniy) nogiron bolalarni o'z ichiga olganligi sababli nostandart guruh deb e'tirof etiladi. Bu toifaga mansublik eshitish, ko'rish funksiyalari, nutqi, tayanch-harakat tizimi, aqliy zaifligi, hissiy-irodaviy sohaning og'ir buzilishlari, autizm spektrini buzilishi, shuningdek, rivojlanishning murakkab buzilishlari bo'lgan bolalardir.

I.N.Simaeva va V.V.Xitryuk inklyuziv ta'lim maydoni xususida ilmiy mulohazalarni bildirib, jumladan shunday deydi: - inklyuziv ta'lim maydoni ijtimoiy makonning integratsion birligi bo'lib, uning mazmunini, o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydigan tarkibiy qismlar, bloklar tizimi bilan ifodalanadi. Bunda ta'lim va shaxslararo munosabatlar har bir ishtirokchi uchun qulay formatda amalga oshiriladi, hamda shaxsiy va ijtimoiy imkoniyatlar rivojlanish va o'z-o'zini o'zgartirishni ta'minlaydi[4].

Inklyuziv makonning asosiy maqsadi ota-onalar, o'quvchilar, o'qituvchi va murabbiylar, hamda boshqa mutaxassislarini ta'lim va tarbiya, ijtimoiy moslashish,



sog'liqni saqlash, korreksion rivojlantirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan faoliyat turli jarayonlariga jalb qilishdir.

A.S.Batalov nuqtai nazaricha inklyuziv makonning ikkita modeli mavjud bo'lib, ular ehtimoliy ta'sir doiralarini qamrab oladi. Birinchisi, bitta ta'lim muassasasi ichida, ikkinchisi esa uning tashqarisida. Ikkinchi model maxsus korreksion maktab bo'lib, maktab va internatlarning qo'shimcha ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligini o'z ichiga oladi. Bular alohida ta'limga muhtoj bolalar ishtirokidagi turli ko'rgazmalar, tadbirlar va teatrlashtirilgan tomoshalarni tashkillashtiradi[2].

Davlat maktablarida o'qiyotgan imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni muvaffaqiyatli o'rganish va ijtimoiylashtirish uchun xavfsiz sharoitlar yaratilishi lozim. Bu tayanch-harakat tizimi kasalliklari bo'lgan bolalar uchun maxsus jihozlangan panduslarni yaratishni o'z ichiga oladi (ko'pincha miya yarim falajli bolalar); ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar uchun maxsus didaktik materiallar va vositalar; eshitish qobiliyati zaif bolalar uchun - maxsus ovoz kuchaytiruvchi qurilmalar. Demak, alohida ta'limga muhtoj bolalarni o'z ichiga olgan barcha maktablar yaxshi texnik, uslubiy baza bilan jihozlangan bo'lishi, shuningdek, o'qituvchilar tarkibini tegishli ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislariga ega bo'lishi kerak.

Ammo, afsuski, hozirgi vaqtda o'qituvchi imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)lar bilan qanday ishlashni bilmay, uni tengdoshlaridan "ajratib qo'yadigan" vaziyatni kuzatish mumkin, bu esa sinfdagi bolalarning bunday bolaga bo'lgan munosabatini yomonlashtiradi. Professional kompetentlik nuqtai nazaridan baholaydigan bo'lsak, o'qituvchi ta'lim jarayonining eng muhim ishtirokchisi va muvofiqlashtiruvchisidir.

O.V.Solodyankina nuqtai nazaricha inklyuziv ta'lim makonini xavfsizligini tashkil etishning muhim jihati - bu mutaxassislarni imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larning ota-onalari, sinf o'quvchilari va ular o'rtasidagi munosabatlar integratsiyasi, moslashuv va hamkorlik omillarini muvofiqlashtirib borishida aks etadi. Chunki bola oilada muayyan xulq-atvor ko'nikmalarini, o'zi va o'zgalari haqida, butun dunyo haqidagi g'oyalarni o'rganadi[5].

Shu ilmiy mulohazalardan kelib chiqib ta'kidlashimiz mumkinki, inklyuziv ta'lim makonini xavfsizligini tashkil etish va barqarorlashtirishda o'qituvchi quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim:

- imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larning ota-onalari bilan ishlashni pedagogik-psixologik dasturini shakllantirish va bosqichma-bosqich amalga oshirish, hamda oilasini birlamchi pedagogik-psixologik portretini yaratish va diagnostikasini amalga oshirish;

- imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)lar bilan bevosita ta'lim- tarbiyani tashkil etadigan (inklyuziv sinflarda dars mashg'ulotlarini olib boradigan) mutaxassisni ota-onalar bilan yaqindan tanishtirish va aloqa o'rnatishini ta'minlash, hamda rehabilitatsiya kartalari, mutaxassislarning mulohazalari va diagnostik ma'lumotlari



asosida inklyuziv ta'limga jalb etilgan imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)ni individual qo'llab-quvvatlash dasturini tuzish;

- inklyuziv ta'limga jalb etilgan imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)ning ota-onalari bilan maktabda faoliyat olib boruvchi "konsulim" ishchi guruh ish rejasini tuzish, hamda sog'ol bolalarning ota-onalari bilan suhbatlar uyushtirish, bolalarini fikrlari xususida ma'lumotlarni jamlash va kontent analiz qilish;

- inklyuzim ta'lim tashkil etilgan maktablarda sog'lom bolalar va imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larning ota-onalari bilan qo'shma tadbirlarlar o'tkazish, hamda bayram konsertlar tashkillashtirish negizida, nafaqat bolalar o'rtasida, balki ota-onalar o'rtasida muloqotning manfaatli, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan konformiz muhitini yuzaga chiqishini ta'minlash masalalariga kreativ yondashuv talab etiladi (Inklyuziv maktablarda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarda, inklyuziv ta'limni tashkil etish va boshqarish kompetentligi biz quyida tavsiya etadigan yangi fan, ya'ni "Inklyuziv ta'lim va uning pedagogik-psixologik asoslari" fani asosida qaror topadi).

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, inklyuziv ta'lim maydoni imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi) tahsil olayotgan ta'lim ularni o'qitish uchun ta'lim standartlari va me'yoriy-huquqiy baza, hamda malakali o'qituvchilar mavjud bo'lgan hollarda xavfsiz bo'ladi.

Imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)ni o'qitish va tarbiyalash, hamda inklyuziv amaliyotni amalga oshirishni uchun zarur sharti - bu ta'lim muassasasida psixologik-pedagogik yordam bo'yicha mutaxassislarning mavjudligi. O'qituvchi va yordamchi mutaxassislarning o'zaro hamkorligi jamoaviy bo'lishi kerak, ammo bu darhol sodir bo'lmaydi, chunki mutaxassislarni har biri o'zining yuqori ixtisoslashgan funksional vazifalarini hal qiladi. Ammo inklyuziv ta'limni amalga oshiruvchi ta'lim muassasalari tajribasi shuni ko'rsatadiki, umumiy til topmasdan, "maxsus" bolani ta'lim jarayoniga kiritish bo'yicha umumiy murakkab vazifalarni qo'ymasdan, maktabning bu yo'nalishdagi faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmaydi.

Mutaxassislar o'zlarining kasbiy tayyorgarligi va majburiyatlariga muvofiq quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradilar: maslahat, tarbiyaviy, korreksion va rivojlantiruvchi, diagnostika va tahliliy, profilaktika, tarbiyaviy va boshqa zaruriy ehtiyojlar. Shu bilan birga, ta'lim muassasasida ishlaydigan barcha mutaxassislarning faoliyati, inklyuziv amaliyotni amalga oshiruvchi muassasa xususiyatga muvofiqlashgan va yo'nalgan bo'lishini taqozo etadi.

Bu vaziyatni muvofiqlashtirish uchun ta'lim muassasani o'zida fanlar kesimida repetitorlik faoliyatini yo'lga qo'yish va muvofiqlashtirilgan holda o'qituvchining shaxsiy motivatsiyasini ham belgilab qo'yish zarur. Repetitor inklyuziv maktabda (sinfda-frontal va individual dasturlar asosida), tanaffus paytida, darsdan tashqari holatlarda bevosita ishlashi uchun zaruriy shart-sharoitlarga ega bo'lishi kerak.

Ye.V.Samsonova repetitor o'qituvchining asosiy vazifasi xususida fikr yuritib, quyidagilarni belgilab ko'rsatadi:



- inklyuziv maktab ta'lim jarayonida bolaning o'ziga o'zi yordam berishini ta'minlovchi dasturlarni ishlab chiqish;
- o'qituvchi va boshqa mutaxassislar bilan muntazam aloqada bo'lish;
- tengdoshlari orasida imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larning psixologik-pedagogik moslashuvi va ijtimoiylashuvi uchun sharoit yaratish;
- imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni individual ta'lim traektoriyasini ishlab chiqish;
- imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni o'quv ko'nikmalari va adekvat xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish.
- imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larning o'qish joyiga yetib borishi va uyiga qaytishi uchun transport vositalarini ularni nogironlik sifat va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda muvofiqlashtirish;
- imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)ni harakatlanish nuqtalari va joylari (maktabga kirish, yo'laklarda harakatlanish, maxsus kutubxona, oshxonalaridan ular uchun maxsus joylarni ajratilishi va moslashtirilishi, "tabiiy zarurat uchun" hojatxonalarni nogironlik xususiyatidan kelib chiqib jihozlash, doska va h.a.) inklyuziv ta'lim standartlariga moslashtirish;
- imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni sog'lom bolalar tomonidan diskriminant holatga tushib qolishi va og'ir psixologik travmalarga chalinish xavfini bartaraf etish yuzasidan psixologik profilaktik dasturlarni ta'lim jarayoniga muntazam singdirib borish.[3]

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, bugungi kunda jamiyatimizda inklyuziv ta'limni tashkil etishda, yuqorida qayd etilgan ilmiy-nazariy qarash va mulohazalardan kelib chiqib, pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'limda "Maxsus pedagogika" va "Maxsus psixologiya" fanlari negizida imkoniyati cheklangan bolalarni psixologik holati, xususiyati va ularning ruhiy jarayonlari, o'zlashtirish imkoniyatlar, hamda boshqa individual xususiyatlarini o'z ichiga olgan inklyuziv ta'lim talab va shartlaridan kelib chiqqan holda, zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'zida aks ettirgan "Inklyuziv ta'lim va uning pedagogik-psixologik asoslari" fan dasturini yaratish va darsligini ishlab chiqish, hamda pedagogik oliy o'quv yurtlarining barcha yo'nalishlarida alohida fan sifatida 10 kredit yoki 2 semestr o'qitilishi maqsadga muvofiqdir (bugungi kunda inklyuziv maktablarda faoliyat olib borilayotgan fan o'qituvchilari malaka oshirish institutlarida yoki OTMlarda qoshida "Inklyuziv ta'lim va uning pedagogik-psixologik asoslari" fan dasturini asosida 10 kredit yoki 2 semestr o'qitilishi, hamda inklyuziv ta'lim maktablarida faoliyat olib borishlari uchun maxsus sertifikatlariga ega bo'lishi lozim). Chunki, "Maxsus pedagogika" va "Maxsus psixologiya" bilimlariga ega bo'lmagan o'qituvchilar inklyuziv ta'limga jalb etilgan o'quvchilarning ruhiyatini tushunmasdan, ular bilan individual muloqot o'rnata olmaydi, hamda ularning o'zlashtirish va o'rganishi bilan bog'liq jarayonlarda hal etishda muammolarga duch keladi. Ta'bir joiz bo'lsa aytish mumkinki, "Inklyuziv ta'lim va uning pedagogik-psixologik asoslari") bu bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirmagan



o'qituvchilar inklyuziv ta'limda faoliyat olib borish kasbiy kompetentligiga ega bo'lmagan pedagoglar deb e'tirof etilishiga yetarli asos bo'ladi. Bu esa inklyuziv ta'lim maqsadiga salbiy ta'sir ko'rsatib, davlat va jamiyat miqyosida uning ommalashuv jarayonini sekinlashtirib, odamlar ongi va tushunchasida negativ qarshalrani uyg'otishi va shakllantirish ehtimolligini yuzaga chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qarshiboyeva, X. K. (2020). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili va o'qish darslarida nutqiy faoliyatini takomillashtirish yo'llari. Konferensiya, 1(1), 379-382.
2. Qarshiboyeva, X. K. (2021). Yozma savodxonlikni oshirishda boshlang'ich sinflarda chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish. Konferensiya, 1(1), 286-289.
3. Qarshiboyeva, X. K. (2023). TALIS xalqaro baholash dasturining ahamiyati va afzalliklari. Mugallim ilmiy metodik jurnali, 1(3), 72-77.
4. Abdiyeva, G. B., & Qarshiboyeva, X. K. (2022). Dars jarayonlarida pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ixtirochilikka oid kompetensiyalarini shakllantirish. Eurasian Journal Of Social Sciences, Philosophy And Culture, 2(1), 91-94.
5. Karimovna, Q. X. (2022). Ixtirochilik masalalarini yechishga o'rgatish bosqichlari. Academic research in educational sciences, 3(12), 183-188.
6. Qarshiboyeva, X. K., & Muminov, Z. S. (2023). Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarining nutqiy faoliyatini rivojlantirish usullari. Mugallim ilmiy metodik jurnali, 1(3), 269-274.
7. Karimovna, K. K. (2023). Taking the Education System to a New Level with the TALIS International Assessment Program and Action Strategy. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(4), 245-249.
8. Karimovna, Q. X. (2023). Boshlang'ich sinflarda imloviy savodxonlikni oshirishda chiroyli yozuv malakalarini shakllantirishning ahamiyati. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(23), 100-105.
9. Qarshiboyeva, X. K. (2023). Advantages of Teaching Based on International Programs in Primary Classes of Uzbekistan. Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research, 1(6), 24-27.
10. Karshiboyeva, K. (2023). Use Of Integrated Educational Technologies In Higher Education. Diversity Research: Journal of Analysis and Trends, 1(3), 254-261.
11. Fatxullayeva, M. G., Xujamkulov, P. (2023). Using Information technologies at Musical lessons in Pedagogical University. International Journal of Music, 15(16), 775-804.
12. Xujamkulov, P. (2023). Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonini tashkil etishdagi imkoniyatlari. Raqamli pedagogika, 1(1), 831-833.



13. Jabborova, O. M., & Khojamkulov, P. (2022). Factors for the development of "music" education in primary education. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(6), 131-135.
14. Gaybullaevich, Y. O., & Pirimqul, K. (2022). Characteristics of Musical Ability Development. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 9, 17-18.
15. Xujamkulov, P. (2022). Developing the stages of formation of competencies in students. *Language and Literature Proceeding*, 1(1), 108-110.
16. Xo, P. (2021). Yirik shakldagi asarlar ustida ishlashda fortepiano cholgusining ahamiyati (I. betxovenning "sonata no22" fdur misolida). *Academic research in educational sciences*, 2(11), 1209-1212.
17. Фатхуллагаева, М. (2020). Музыкальное образование в германии European research: innovation in science. education, 73-74.
18. Fatxullayeva, M. G. (2023). Raqamli pedagogikaning hozirgi kundagi o'рни. *Raqamli texnologiya*, 1(1), 822-824.
19. Fatxullaeva, M. G. (2023). Neobxodimost povisheniya kommunikativnoy kompetentnosti lichnosti v sovremennom obrazovatelnom protsesse. *Ilm Sarchashmalari*, 1(10), 131-133.
20. Fatkhullayeva Baygitova, M. G. (2020). MUSIC EDUCATION IN GERMANY. *Экономика и социум*, (10 (77)), 73-74.
21. Murotjon ogli, X. O. (2023). SIFATLI TALIM TIZIMINI BARPO ETISHDA CHET EL TAJRIBASI (FINLANDIYA, SINGAPUR MISOLIDA). O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMİY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(21), 162-164.
22. Murotjon, X. O. (2023). Measures to be Implemented to Preserve and Protect Architectural Monuments in the City of Bukhara. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(8), 402-406. Мирахмедов, Ф. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПОДГОТОВКИ ВОЛЕЙБОЛИСТОК 14–15 ЛЕТ К СОРЕВНОВАНИЯМ С УЧЕТОМ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ УСТОЙЧИВОСТИ. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, 6(3).
23. Mirakhmedov, F. (2023). THE ACCURACY OF THE MOVEMENTS OF YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS FORMATION STYLES. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 15, 121-123.
24. Мирахмедов, Ф. (2022). ТАЛАБАЛАРНИ МУСТАҚИЛ ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ ТАЙЁРГАРЛИГИГА ЎНАЛТИРИШ. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 9, 53-57.
25. Miraxmedov, F. T. (2022). Dzyudo musobaqalarida eng ko'p qo'llaniladigan usullar va ularning ahamiyati. *TDPU*, 1(5), 217-221.
26. Miraxmedov, F. (2022). Using multimedia tools to visualize the actions of young Greco-Roman wrestlers.
27. Мирахмедов, Ф. Т. (2022). Соғлом турмуш тарзини болаларда шакллантиришда оила ва атроф муҳитнинг аҳамияти. *ЎзМУ хабарлари*, 1(2), 119-120.



28. Мирахмедов, Ф. (2022). ПРИМЕНЕНИЕ МУЛТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБЛАСТИ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, 5(7).

29. Мирахмедов, Ф. (2022). ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ФИЗКУЛЬТУРНЫХ ЗАНЯТИЙ ВЗРОСЛОГО НАСЕЛЕНИЯ. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, 5(6).

30. Мирахмедов, Ф. (2022). ЖИСМОНИЙ МАШҚЛАР ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРДА ЧАРЧОҚНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ВОСИТАЛАРИ. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, 5(5).

31. Miraxmedov, F. (2020). Improvement of Physical Education and Sport Efficiency in the Continuous Education System. Архив Научных Публикаций JSPI.

32. Mirakhmedov, F. T. (2020). Methods of development of speed abilities of swimmers. Theoretical & Applied Science, 11(91), 51-54.

33. Mirakhmedov, F. T., Yunusova, D. S., & Tozhiboev, M. M. (2020). Methods of development of speed abilities of swimmers. ISJ Theoretical & Applied Science, 11 (91), 51-54.

34. Мирахмедов, Ф. (2018). Умумтаълим мактабларида миллий ҳаракатли ўйинларнинг ижтимоий педагогик асослари. Халқ таълими, 1(1), 70-73.

35. Yandashaliyev, D., & Eshnazarova, M. (2023, May). ELEKTRON RESURSLAR ASOSIDA O 'QITISH TUSHUNCHASI, UNING BUGUNGI RIVOJLANISH DAVRIDAGI AHAMIYATI. In International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming.

36. Eshnazarova, M. (2023, May). XORIJIY TILNI MUSTAQIL O 'RGANISHDA MOBIL TEXNOLOGIYALARNING O 'RNI. In International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming.

37. Yunusalievna, E. M., & Maxmudovna, K. M. (2023). Theoretical Foundations of Using the Possibilities of Mobile Learning in the Educational Process. Journal of Survey in Fisheries Sciences, 10(2S), 3443-3453.

38. Eshnazarova, M. (2019). Some requirements and principles of mobile learning. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(2), 266-270.